

“Hududgazta’minot” AJ korporativ maslahatchisi lavozimiga tanlov e’lon qiladi.

Maslahatchi nomzodiga keltirilgan malakaviy talablar:

nomzod yuridik yoki iqtisodiyot yo‘nalishida oliy ma’lumotga, kamida 3 yillik, shu jumladan ushbu yo‘nalishda rahbarlik lavozimida kamida 2 yillik ish tajribasiga, korporativ boshqaruv va korporativ huquq sohasida amaliy bilimga ega bo‘lishi;

nomzod O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi biznes va boshqaruv respublika oliy maktabi korporativ boshqaruvining malaka attestatiga ega bo‘lishi shart.

Qo‘shimcha talablar: rus va ingliz tillarini bilishi ma’qullanadi.

Maslahatchining asosiy vazifalari:

- Jamiyatning korporativ hujjatlarining amaldagi qonunchilikka mosligini o‘rganadi, agarda qonunchilikka zid holatlar mavjud bo‘lsa, ularni yo‘q qilish uchun Kuzatuv kengashiga takliflar kiritadi;

- Korporativ boshqaruv va nazorat organlari, shuningdek Jamiyatning yetakchi mansabdor shaxslari faoliyatini xatti-harakatlarning korporativ standartlarga va ijro intizomi talablariga muvofiqligini nazorat qiladi;

- Affillangan shaxslar to‘g‘risida va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzishning qonun bilan belgilangan tartibi o‘rganib chiqib, maslahatlar beradi;

- Korporativ boshqaruv masalalari bo‘yicha hujjatlar loyihalarini ko‘rib chiqish uchun qabul qiladi va ular bo‘yicha tavsiyalar beradi yoki ularni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

- Korporativ hujjatlar aylanishini hamda rasmiylashtirishni tashkil etishda uslubiy yordam beradi;

- Korporativ boshqaruv va nazorat organlari a‘zolari, shuningdek aksiyadorlar yoki ularning vakillarining iltimosiga binoan korporativ qonunchilik va korporativ boshqaruvning eng yaxshi amaliyotlarini amalga oshirish bo‘yicha maslahatlashadi, korporativ nizolarni hal qilish jarayonida ishtirok etadi;

- Korporativ boshqaruv tamoyillarini amalga oshirish to‘g‘risida takliflarni tayyorlaydi va kuzatuv kengashiga kiritadi;

- Jamiyatda amalga oshirilayotgan korporativ masalalar qonunchilikka rioya qilinganligi to‘g‘risida kuzatuv kengashiga hisobot beradi va korporativ maslahatchi xulosasini taqdim etadi;

- Kuzatuv kengashining alohida buyruqlari bo‘yicha maslahat ishlarini bajaradi;

- Jamiyat Kuzatuv kengashi va umumiy aksiyadorlar yig'ilishlarini tashkil qilishda, shuningdek bayonnoma tuzishda hamda zarur materiallarni tayyorlashda uslubiy yordam beradi.

Maosh: Shartnomaga asosan.

Bandlik: Shartnomaga asosan.

Ish manzili: Toshkent shahri.

Hujjat (rezyume) elektron tarzda qabul qilinadi.

Manzil: info@hududgaz.uz

Qabul qilish muddati: 2022 yil "28" fevral soat 18:00 gacha.

Aloqa uchun telefon: +99871 281 16 68 (icki 287), +99899 706 55 77.